

MASHHUR O'ZBEK YOZUVCHISI O'TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARIDAGI METAFORA VA TURG'UN BIRIKMALARNING LINGVISTIK TAHLILI

Raximova Nilufar

SamDCHTI Ingliz tili 2 fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada metafora tushunchasining tadrijiy tadqiqotlari, til tizimidagi o'rni, funksiyalari haqida so'z yuritiladi. Nazariy qarashlar adabiy manbalardan olingan misollar yordamida yoritilgan va muayyan doirada milliy-madaniy dunyo qarashni ochib berishga harakat qilinadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlarini kognitiv nuqtai nazardan tadqiq etish dolzarblik kasb etmoqda o'zbek milliy adabiyotidagi frazeologizmlarni tadqiq etish orqali o'zbek milliy-madaniy dunyoqarashini yorqinroq aks etirish mumkin. Maqolada metafora tushunchasining tadrijiy tadqiqotlari, til tizimidagi o'rni, funksiyalari o'rganilgan ma'lumotlar beriladi. Nazariy qarashlar adabiy manbalardan olingan misollar yordamida yoritilgan. Bu manbalar yordamida muayyan doirada milliy-madaniy dunyo qarashni ochib bera oladi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, lingvomadaniy xususiyatlar, kognitiv nuqtai nazar, lingvistik tahlil,

Frazeologiya (yun. phrasis – ifoda, ibora va logiya). 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui.

Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi.

Metafora- grekcha “metaphora” “so'zidan olingan bo'lib “ko'chirish” degan ma'noni bildiradi, biror predmet belgisining ,harakatining o'xhash tomonini boshqasiga ko'chirish. Masalan:tandirning og'zi birikmasida og'iz so'zining ma'nosi odam va hayvon og'ziga tashqi o'xhashligi asosida vujudga kelgan. Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xhashlik turli asosda bo'lishi mumkin:

1. Ikki predmet o'rtasidagi shakliy o'xhashlik. Masalan:odam qulog'I va qozon qulog'I;
2. Ikki predmetning qayerda joylashishi bo'yicha o'xhashlik. Masalan:itning dumi, samolyot dumi va boshqalar.

Metaforada ma’no ko’chish quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Inson a’zolarining nomi boshqa narsalarga ko’chadi. Masalan:ko’chaning boshi, Yer yuzj, kitobning beti, shishaning og’zi, choynakning burni, dutorning qulog’i kabi.

2. Inson kiyimlari qismlarining nomi boshqa narsalarga ko’chadi. Masalan: tog’ning etagi, daryoning yoqasi, eshikning tugmasi kabi.

3. Qush, parranda, hayvon a’zolarining nomi boshqa narsalarga ko’chadi. Masalan: Futbolchilarimiz chap qanotdan hujum uyushtirdilar, varrakning dumি osmonda chiroyli tebranadi.

4. Harakat-holat(fe’l), belgi-xususiyat(sifat)lar ham o’xshashlik belgisiga ko’ra metafora asosida ma’no ko’chishiga uchraydi. Masalan: gapni gapga ulamoq, osmon ko’z yoshini to’kdi, xazon bo’lmoq, shirin xayol, sovuq xabar kabi.

Shirin: shirin olma (o’z ma’nosida)-shirin muomala(metafora asosida ma’no ko’chishi);

Chiroyli: chiroyli guldasta(o’z ma’nosida)-chiroyli muomala(metafora asosida ma’no ko’chishi);

Qurimoq: Ko’l quridi(o’z ma’nosida)-iz quridi(metafora asosida ma’no ko’chishi);

Erimoq: Muz eridi(o’z ma’nosida)-Onaning ko’ngli eridi(metafora asosida ma’no ko’chishi);

Sifatlarda ma’no ko’chishi bo’lganda sifatning bir ma’no turi boshqa ma’no turini ifodalaydi. Masalan, Voy, manavi bolaning shirinligini qarang gapida shirin-mazata’mni bildiruvchi sifat ma’nosini bildirgan. Yoki uning fe’li tor gapidagi tor so’zi hajm bildiruvchi sifat ma’nosini bildirish uchun qo’llangan.

5. Metaforalarga juda yaqin vosita o’xhatishlar bo’lib, ular yordamida shaxs va predmetlar bir-biriga o’xhatiladi:

Adashgan it kabi, Furqat, qayon borgum bilolmasman. Ulug’bek misoli oftob.

6. Kishilarga qo’yilgan ismlar ham metafora asosida qo’yiladi: Yo’lbars, Bo’riboy, Qoplombek, Burgutbek, Lochinoy, Gulnora, Gulchehra.

7. Qovun navlari, gullarga, qushlarga, hasharotlarga qo’yiladigan nomlar ham metafora asosida qo’yiladi: obinavvot(mazasi o’xshaydi), kampirchopon(tashqi ko’rinishi o’xshaydi), umriboqiy (uzoq vaqt saqlanishi o’xshaydi), bo’rikalla (vazni o’xshaydi)-qovun navlari; itog’iz(guli itning og’ziga o’xshaydi), karnaygul(guli karnayga o’xshaydi), gulitojixo’roz(guli xo’rozning tojiga o’xshaydi)-gul turlari;tillaqo’ng’iz, toshbaqa, qizilishton-hayvon va hasharot nomlar.

Quyidagi ilmiya tadqiqitda biz O’tkir Hoshimovning mashhur asarlaridan biri “**Dunyoning ishlari**” novelasida metafora va frazeoligizmlarning yasalish uslubi va lingvistik tahlilini ko’rib chiqdik:

1. Ehtimol, tabiatning eng shavqatsiz elchisi bilan ham olishib o'tirishni xohlamagandir.
Tabiatning eng shavqatsiz elchisi-ot+ot, vosita:ning, ma'nosiyomg'ir.
3. Iye, qoravoylar kep qopsizlar-da – dedi quvonib.-Qani, kampir, chodirni opchiq
Qoravoylar-og'il bolalar.
4. Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan to'lgan osmonga tillaqoshdek ingichka oy suzib chiqadi.
Suzib chiqadi-ravishdosh+fe'l, vosita:mavjud emas, ma'nosiyosmonga chiqadi.
5. Oymomo bu sehrli qo'shiqni eshitgisi kelgandek, muallaq to'xtab qolar
Sehrli qo'shiq-sifat+ot, vosita:mavjud emas, ma'nosialla
6. Yulduzlar o'ychan ko'zlarini tikib muloyim boqib turishar onam ertak aytardi.
O'ychan ko'zlarini-sifat+ot, vosita:mavjud emas, ma'nosiy qiziqish bilan qaramoq
Ko'zlarini tikib-ot+fe'l, vosita:ni tushum kelishigi, ma'nosiy qaramoq
7. Oyi, cho'pchak aytib bering.
Cho'pchak-ma'nosiy hikoya, ertak
8. Sukunat cho'kadi.
Ot+fe'l, vosita:mavjud emas, ma'nosiy jim-jit bo'ladi
9. Bu qizning falasafa fakultetida o'qishini eshitgandim, mahalaning "modniy" qizlaridan ekanini, jinsi shim kiyib yurishini bilardim-u kechagina ko'chada cherta o'ynab yurgan qizaloqdan bunchalik ilmoqli savol kutmagan edim.
Modniy qizligini-sifat+ot, vosita:yo'q, ma'nosiy zamonaviy
Ilmoqli savol-sifat+ot, vosita:mavjud emas, ma'nosiy ma'noli va mazmunli savol.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dunyoning ishlar. O'tkir Hoshimov
2. Erkaboyeve
3. www.org.uz
4. "Xorijiy til va adabiyoti" jurnali. 2-son 2022